



**“MEHROBDAN CHAYON” ROMANINING YUZAGA KELISHI VA
ROMANINING INGLIZ TILIGA O’GIRILISHI HAQIDA AYRIM
MULOHAZALAR**

Raximova Irodahon Bahodirovna

O’qituvchi, Andijon davlat chet tillari instituti, Andijon, O’zbekiston,

E-mail: rakhimova 1974@gmail.com

Atoqli o’zbek yozuvchisi, halq kuychisi Abdulla Qodiriyning qalamiga mansub “**Mehrobdan chayon**” asaridagi nutqiy kalimalarning konseptual tahlilini amalga oshirmoqchimiz. boshlashdan avval, mazkur asarning yozilishi haqida ozroq ma’lumot berib ketsak.

Islombek Abduhakimovning Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon asari sharhi” nomli maqolasidan ma’lumot sifatida foydalanamiz. ““Mehrobdan chayon” romani yozuvchi izohi bilan Xudoyorxon va munshiyolari hayotidan tarixiy ro’mon bo’lib, unda Qo’qon xoni Xudoyorxonning noodil siyosati, insofsiz ulamolar, o’sha davrning og’ir hayot tarzi, oddiy xalqning ahvoloti haqida so’z boradi.

Mehrobdan chayon- o’zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriyning ikkinchi yirik asari 1928-yil fevralda yozib tugatilgan. Roman birinchi marta 1929-yil Samarqandda bosilib chiqdi. Roman mavzui XIX asr hodisalari - „xon zamonlari“ davridagi o'zboshimchaliklarni ko'rsatishga qaratilgan bo'lsada, unda roman yozilgan davr ruhi kuchli singdirilgan

Mehrobdan chayon- o’zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriyning ikkinchi yirik asari 1928-yil fevralda yozib tugatilgan. Roman birinchi marta 1929-yil Samarqandda bosilib chiqdi. Roman mavzui XIX asr hodisalari - „xon zamonlari“ davridagi o'zboshimchaliklarni ko'rsatishga qaratilgan bo'lsada, unda roman yozilgan davr ruhi kuchli singdirilgan.

Asarni „Mehrobdan chayon“ deb atash, ziyoli ulamolarni qahramon qilib tanlashdan murod muqaddas dargoh - sajdagohdan chiqqan, o’sha dargohga nomunosib munofiq, qallob, tuban kimsalarga, hasadgo’y, e’tiqodsiz kishilarga ishoradir. Romanda Anvar bilan Ra’noning sevgi sarguzashti, qalb nazokati shoirona tarannum etilgan. Maktabdor Solih mahdumning yumoristik obrazi adabiyotshunoslar tomonidan yozuvchining jiddiy yutug'i deya hisoblanadi.

Asar uzoq yillar davomida juda ko’p marotaba qayta nashr etilgan. Jumladan, 1994-yilda G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan O’tkan kunlar bilan bir kitobda 602 betli 60 000 nusxada, 2016-



yilda Yangi asr avlodi nashriyoti tomonidan 512 betli yumshoq muqovada, 2008 va 2018-yillarda Sharq nashriyoti tomonidan 288 betli qattiq muqovada nashr etilgan. [<https://civil.uz/abdulla-qodiriy-mehrobdan-chayon-asari-sharh>]

Asarning Ingliz tilidagi tarjimasini haqida ham ozroq ma'lumot berib o'tsak: asarning nomi Ingliz tiliga quyidagicha o'girilgan: **The Scorpion from the Altar**".

Asarni O'zbekiston Jahon tillari Universiteti rektori Ilhom To'htasinov tarjima qilgan. Asar tarjimasini haqida tarjimomni ham fikrlarini berib o'tsak: Qodiriy davridagi til murakkab bo'lganligi bois tarjima jarayonida qiyinchiliklarga duch kelmaslikning iloji yo'q. Sababi, "Mehrobdan chayon"da uchraydigan leksik birliklarning ba'zilari hozirda eskirgan, bugungi ona tilimizda ishlatilmaydi. Qolaversa, ba'zi tushunchalarga ham atroflicha izoh berishga to'g'ri keldi. Bunda O'zbek tilining izohli lug'ati, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi bizga tayanch manba bo'ldi. [<https://fledu.uz>]

Darhaqiqat, "Mehrobdan chayon"da uchraydigan leksik birliklarning ba'zilari hozirda eskirgan, biz ham tadqiqotimizni ushbu nutqiy kalimalarni lingvistik tahlilini qilmoqchimiz, bu esa asarni mutoala qilayotgan kitobhonga yordam beradi deb umid qilamiz.

Til eng murakkab, ayni choqda benihoya o'ziga xos ijtimoiy xodisadir. Tilda xalqning urf-odati, yashash tarzi, iqtisodiy ahvoli, qisqasi xalqning bor-budi, bo'ybasti aks etadi. Muayyan xalqning tilini bilish uning butun borlig'ini anglash demakdir. [Миртожиев М. Махмудов Н. Тил ва маданият.-Т."Ўзбекистон"1992. -Б.82 (Mirtojiev M. Mahmudov N. Til va madaniyat. –Т. "O'zbekiston" 1992. – B.82)]

Tilni va tadqiqqa tortilgan mamlakat madaniyatini bilmay turib, hech qanday tadqiqotchi o'z tadqiqini amalga oshira olmaydi. Shu sababli ham, muayan xalq tilining mazmuni, mohiyatini idrok etish shu halqning tarixi-yu kelajagini, urf-odatini anglashdan boshlanadi.

Ingliz tiliga o'girilgan matnda esa quyidagicha berilgan: **feeding her junior baby with her breast** nutqiy kalimasining tarjimasini esa **kichik chaqalog'ini ko'kragi bilan oziqlantirmoq** ma'nosida berilgan. Bundan ko'rinadiki, tarjimon asliy matnning asl mohiyatini anglagan holda o'girgan ko'rinadi, bizningcha ham tarjima muvofaqiyatli berilgan.

loy o'yun frazemasiga kelsak, bu o'yin o'zbek milliy o'yinlaridan biri bo'lib, yosh bolalar orasida keng tarqalgan o'yin hisoblanadi. Bu o'yin ko'pincha shahar tashqarisida istiqomat qiluvchi bolalar orasida asosan yoz faslida ko'proq o'ynaladi.



Aytishlaricha bu o'yin bolalarni sovuqqa nisbatan kurashish imunitetini oshirishi haqida ma'lumotlar bor.

Ingliz halqlari o'yinlari orasida **loy o'yini** ham mavjud bo'lib, unga quyidagicha izoh berilgan: Playing on clay leaves players more physically and emotionally satisfied than other surfaces. The physical satisfaction comes from playing long points and long matches without over-stressing the knees, back, and lower extremities. The emotional satisfaction comes from the thinking, creating, and tactical responding that goes into each point and each match.
[\[https://diverseytenniscenter.com\]](https://diverseytenniscenter.com)

Tarjimasi: **loy o'yini** o'yinchilar boshqa o'yinlarga qaraganda, jismoniy va hissiy jihatdan ko'proq kuch olishadi yoki zavqlanishadi. Jismoniy zavqlanish tizzalar, orqa va pastki bo'g'inlarni charchatmasdan o'yinni uzoq o'ynashga imkoniyat yaratdi. Qalban o'yindan zavqlanish har bir nuqta, har bir o'yinda o'ylash va taktik javob berishdan kelib chiqadi.

Xalq milliy o'yinlari, jumladan o'zbek milliy o'yinlari barcha xalq-elatlar kashfiyotlari kabi (musiqqa, kulolchilik, gilam to'qish asboblari, ashula va raqs, ertak va h.k.) insoniyat tarixining turli ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlarida taraqqiy etgan o'ziga xos etno va filootogenetik xususiyatlar asosida «ixtiro» qilingan va shakllanib kelgan. O'zbek xalq o'yinlari xalqning o'ziga xos urf-odatlaridan, turmush sharoitidan, yashash iqlimi, tarixiy obidalar, atrof-muhit sharoitidan kelib chiqqan bo'lib, shularga yarasha jinsiga, yoshiga, salomatligiga ko'ra qo'llanilgan **loy o'yuni** [O'zbek tilining izohli lug'ati. L-harfi.-B.97] - ma'lumki, o'zbek xalq o'yinlari o'z ichiga harakat jihatdan har xil jismoniy sifatلامي rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlarni qamrab olgan [T . Usmanxodjayev. Sport va harakatli o'yinlar (milliy va harakatli o'yinlar) darslik [Matn]: darslik. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — T.: Cholon nomidagi NMIU, 2018. — 328 b.] bo'lib, bular orasida loy o'yini ham bordir. Fikrimizning dalili sifatida shuni ta'kidlab o'tish kerakki, ingliz halqi loy o'yinlariga deyarli o'hshash ekanligi, bu o'yinni azaldan qaysi millat bo'lishidan qat'iy nazar o'ylanib kelinayotganligi, eski milliy o'yinlarni hali ham davom etib kelayotganligi milliylikni saqlab qolinayotganligidan dalolatdandir desak, mubolag'a bo'lmas. Xalqning milliy o'yinlari nomlarini bemalol nutqiy kalimalar safiga kirgizishimiz mumkin.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. L-harfi.-B.97
2. Миртожиев М. Маҳмудов Н. Тил ва маданият.-Т."Ўзбекистон"1992. - Б.82 (Mirtojiev M. Mahmudov N. Til va madaniyat. –Т. "O'zbekiston" 1992. – B.82)
3. Т . Usmanxodjayev. Sport va harakatli o'yinlar (milliy va harakatli o 'yinlar) darslik [Matn]: darslik. Oliy va o 'rta maxsus ta 'lim vazirligi. — Т.: С h o l p o n nomidagi N M IU , 2018. — 328 b.
4. <https://civil.uz/abdulla-qodiriy-mehrobdan-chayon-asari-sharh>
5. <https://diverseytenniscenter.com>
6. <https://fledu.uz>